



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«9» iyul 2026 y.
№ 468

“Claude” korporativ obunasini xarid qilish

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent — 2026 y.

1. Buyurtmachi

Buyurtmachi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB.

Buyurtmachining manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 18A uy. Tel: (+998 78) 150-00-55.

2. Ijrochi

Ushbu tanlov bo‘yicha ijrochi tanlash natijalari asosida belgilanadi.

Ijrochi ishlab chiqaruvchining rasmiy vakili (yoki vakolatli distribyutori/qayta sotuvchisi) yoki tegishli korporativ obuna xizmatlarini sotish va texnik qo‘llab-quvvatlash huquqiga ega bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo‘lishi lozim.

Ijrochi mazkur hujjatning barcha talablariga javob beruvchi xizmatlarni yetkazib berish bo‘yicha o‘zining Texnik taklifini taqdim etishi zarur.

Ijrochi obuna muddati davomida texnik qo‘llab-quvvatlash, foydalanuvchilarni faollashtirish/o‘chirish hamda hisob-kitob bo‘yicha xizmatlarni uzluksiz ko‘rsatishni kafolatlaydi.

Ijrochi ajratilgan byudjet doirasida to‘liq funksional xizmatni taqdim etishi, zarurat bo‘lganida, qo‘shimcha modullarni, qandaydir sabablarga ko‘ra Buyurtmachi tomonidan hisobga olinmagan, biroq so‘ralayotgan konfiguratsiyadan foydalanish to‘liqligini ta‘minlash uchun majburiy bo‘lgan komponentlarni taklif qilishi kerak.

3. Texnik ta‘minotga qo‘yiladigan talablar

Xizmatlarni taqdim etish korporativ obunalarni faollashtirish va foydalanuvchi akkauntlarini boshqarish imkoniyatini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Texnik taklifda taklif etilayotgan xizmatlar ro‘yxati, hajmi (foydalanuvchilar soni, amal qilish muddati, foydalanish limiti yoki billing modeli) hamda texnik funksional imkoniyatlari ko‘rsatilishi kerak.

Taklif etilayotgan xizmatlarning texnik ko‘rsatkichlari va funksional imkoniyatlari texnik talablarda belgilangan darajadan past bo‘lmasligi lozim.

Xarid qilinadigan xizmatlarning ro‘yxati va hajmi 1-jadvalda keltirilgan. Barcha xizmatlar to‘liq ro‘yxati bo‘yicha texnik taklif kiritilishi lozim. Agar ro‘yxatdagi ayrim xizmat bo‘yicha texnik taklif kiritilmasa, bu taklif rad etiladi va ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.

Taklif etilayotgan xizmatlar texnik talablarda ko‘rsatilganidan kam bo‘lmagan funksional va texnik imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim (2-jadval).

1-jadval

Xarid qilinadigan xizmatlar ro'yxati

№	Xizmat nomi	Hajmi / Soni
1	Anthropic "Claude Enterprise" platformasi korporativ obuna xizmati	50 nafar foydalanuvchi uchun 12 (o'n ikki) oylik korporativ obuna

2-jadval

"Claude" korporativ obunasiga qo'yiladigan talablar

№	Parametrlar	Minimal majburiy talablar
1	Xizmat turi	Sun'iy intellekt asosida ishlovchi korporativ platforma (Large Language Model — LLM asosidagi virtual assistent)
2	Provayder (ishlab chiqaruvchi)	Claude AI rasmiy ishlab chiqaruvchisi yoki uning vakolatli vakili/distribyutori
3	Obuna darajasi	Claude Enterprise yoki funksional jihatdan ekvivalent korporativ tarif rejasi
4	Foydalanuvchilar (litsenziyalar) soni	Kamida 50 (ellik) nafar nomli foydalanuvchi
5	Obuna muddati	12 (o'n ikki) oy
6	LLM modellariga kirish	Provayder tomonidan taklif etilayotgan so'nggi avlod Claude modellariga (Opus, Sonnet, Haiku oilasi) cheklanmagan kirish
7	Kontekst oynasi hajmi	Kamida 250 000 token
8	Foydalanish limitlari	Korporativ foydalanish uchun kengaytirilgan so'rovlar limiti
9	Jamoa funksiyasi (Projects)	Bo'linmalar ichida hujjatlar, ko'rsatmalar va kontekstni umumiy ishlatish imkoniyati
10	Artefaktlar (Artifacts)	Interaktiv hujjatlar, kod, jadvallar va vizual materiallarni yaratish va tahrirlash funksiyasi
11	Veb-qidiruv	Real vaqt rejimida internet manbalaridan ma'lumot olish funksiyasi
12	Fayllar bilan ishlash	PDF, DOCX, XLSX, PPTX, CSV, JSON, TXT, MD va rasm formatlaridagi fayllarni qabul qilish va tahlil qilish
13	Tillarni qo'llab-quvvatlash	O'zbek (lotin va kirill), rus va ingliz tillarida to'liq ishlash imkoniyati
14	Dasturiy kod bilan ishlash	Python, JavaScript/TypeScript, SQL, Java, C++, Go va boshqa keng tarqalgan dasturlash tillarida kod yozish, tahlil qilish, refaktoring va xatolarni topish

№	Parametrlar	Minimal majburiy talablar
15	Hujjatlar bilan ishlash	Hujjatlarni tarjima qilish, qisqartirish, tahrirlash, formatlash hamda tarkib bo'yicha tahliliy xulosalar shakllantirish
16	Administrator paneli	Foydalanuvchilarni qo'shish/o'chirish, rollarni boshqarish, faollik monitoringi, foydalanish statistikasi va hisobotlar
17	Yagona kirish (Single Sign-On)	SAML 2.0 va/yoki OIDC orqali korporativ identifikatsiya tizimlari bilan integratsiya imkoniyati
18	Ma'lumotlar maxfiyligi	Foydalanuvchi ma'lumotlaridan modelni o'qitish maqsadida foydalanmaslik bo'yicha kafolat
19	Texnik qo'llab-quvvatlash	Elektron pochta yoki tiket tizimi orqali texnik qo'llab-quvvatlash xizmati
20	Xavfsizlik sertifikatleri	SOC 2 Type II, ISO 27001 yoki ekvivalent xalqaro standartlarga muvofiqlik
21	Foydalanish interfeysi	Veb-brauzer (claude.ai), mobil ilovalar (iOS va Android), Desktop ilovalar (Windows va macOS)
22	Audit jurnali (Audit log)	Foydalanuvchilar harakatlari bo'yicha audit logini eksport qilish imkoniyati (Enterprise darajasidagi obuna uchun)

Tanlashda bo'lg'usi ishtirokchilar doirasi kengayganida Buyurtmachi tomonidan texnik talablarni texnik topshiriqda keltirilgan texnik ko'rsatkichlarga muvofiq keladigan yoki undan oshadigan o'xshash yechimlar asosidagi takliflar ko'rib chiqilishi mumkin.

4. Kafolatlar hajmiga va ularni taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar

Taklif etiladigan xizmatlar provayder tomonidan rasmiy taqdim etilayotgan amaldagi versiyalarda bo'lishi hamda xalqaro standartlarga muvofiq xizmat ko'rsatishni ta'minlashi lozim.

“Claude Enterprise” korporativ obunasining amal qilish muddati kamida 12 (o'n ikki) oyni tashkil etishi hamda ushbu davr davomida xizmatlar uzluksiz taqdim etilishi zarur.

Xizmatlarning mavjudligi (uptime SLA) provayder tomonidan belgilangan rasmiy SLA shartlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Provayder va/yoki Ijrochi tomonidan foydalanuvchi ma'lumotlarining maxfiyligi, butunligi va xavfsizligi SOC 2, ISO 27001 yoki ekvivalent xalqaro standartlar asosida ta'minlanishi shart.

Barcha xizmatlar bo'yicha texnik qo'llab-quvvatlash provayderning rasmiy servis kanallari hamda Ijrochi mutaxassislari orqali amalga oshirilishi lozim.

Texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha javob berish vaqti: kritik darajadagi muammolar uchun — 4 (to'rt) soatdan oshmaslik; o'rta va past darajadagi muammolar uchun — 1 (bir) ish kunidan oshmaslik.

5. Axborot xavfsizligiga qo'yiladigan talablar

Xizmatlarni taqdim etishda Buyurtmachining axborot resurslari, bank siri, shaxsga doir ma'lumotlari hamda boshqa konfidensial ma'lumotlarning maxfiyligi, butunligi va mavjudligini ta'minlash maqsadida quyidagi axborot xavfsizligi talablari bajarilishi lozim:

- xizmat xalqaro e'tirof etilgan axborot xavfsizligi standartlariga, jumladan SOC 2 Type II, ISO/IEC 27001 yoki ularga ekvivalent standartlar talablariga muvofiq bo'lishi lozim;
- platformada Buyurtmachining axborot xavfsizligi bo'yicha mas'ul xodimlari uchun xavfsizlikni boshqarish va nazorat qilish imkonini beruvchi alohida ma'muriy rol (yoki funksional jihatdan ekvivalent boshqaruv vakolatlari) mavjud bo'lishi lozim;
- platformada administrator, xavfsizlik administratori va boshqa imtiyozli foydalanuvchi hisoblari uchun ko'p faktorli autentifikatsiya (Multi-Factor Authentication — MFA) qo'llab-quvvatlanishi hamda majburiy qo'llash imkoniyati mavjud bo'lishi lozim;
- platformadan foydalanishni IP-manzillar bo'yicha cheklash yoki unga ekvivalent tarmoq darajasidagi kirish nazorati mexanizmlarini qo'llash imkoniyati mavjud bo'lishi lozim;
- platforma bilan ma'lumot almashinuvi TLS 1.2 yoki undan yuqori versiyadagi himoyalangan kriptografik protokollar orqali amalga oshirilishi, saqlanadigan ma'lumotlar esa zamonaviy shifrlash mexanizmlari bilan himoyalangan bo'lishi lozim;
- administrator panelida foydalanuvchilarni qo'shish, o'chirish, bloklash, faollashtirish, guruh va rollarni boshqarish, foydalanish statistikalarini ko'rish, audit jurnallarini ko'rish hamda eksport qilish imkoniyatlari mavjud bo'lishi lozim;
- platformada foydalanuvchilar, administratorlar va imtiyozli foydalanuvchilarning axborot xavfsizligiga taalluqli muhim harakatlarini qayd etuvchi audit jurnallari yuritilishi hamda audit jurnallarini eksport qilish yoki API orqali Buyurtmachining markazlashtirilgan monitoring va SIEM tizimlari bilan integratsiya qilish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim;
- platformada ma'lumotlarni saqlash muddati (retention), ma'lumotlarni o'chirish, tashqi integratsiyalar va connectorlarni boshqarish imkoniyatlari mavjud bo'lishi lozim;
- Buyurtmachining promptlari, fayllari, javoblari, Projects materiallari, dasturiy kodlari va boshqa ma'lumotlaridan sun'iy intellekt modellarini o'qitish, takomillashtirish yoki uchinchi shaxslarga taqdim etish maqsadlarida foydalanilmasligi kafolatlanishi lozim;
- platformada axborot xavfsizligi hodisasi, ma'lumotlar buzilishi yoki Buyurtmachining konfidensial ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish holati aniqlanganda Buyurtmachini provayderning amaldagi xavfsizlik siyosati va shartnoma shartlariga muvofiq belgilangan tartibda xabardor qilish mexanizmi mavjud bo'lishi lozim;
- xizmatlarni taqdim etishda O'zbekiston Respublikasining bank siri, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish hamda axborot va kiberxavfsizlik sohasidagi amaldagi qonunchiligi talablariga rioya etilishi lozim;

- xizmatni joriy etish va undan foydalanish jarayonida Buyurtmachining bank siri, shaxsga doir ma'lumotlari va boshqa konfidensial ma'lumotlarining maxfiyligi ta'minlanishi shart..

6. Xizmatlarni taqdim etish joyi va shartlariga qo'yiladigan talablar

Ijrochi xarid qilingan xizmatlarning quyidagi shartlarga muvofiq taqdim etilishini ta'minlashi zarur:

- "Claude Enterprise" korporativ obunasi bo'yicha foydalanuvchi akkauntlari shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida elektron tarzda faollashtirilishi hamda administrator boshqaruv paneli Buyurtmachiga taqdim etilishi shart;
- administrator hisoblari va boshqa identifikatsiya ma'lumotlari faqat xavfsiz aloqa kanallari orqali Buyurtmachining mas'ul shaxsiga taqdim etilishi shart;
- Buyurtmachi xodimlari uchun xizmatlardan foydalanish bo'yicha qisqacha yo'riqnoma, onboarding materialiy yoki konsultativ ko'mak taqdim etilishi lozim;
- hisob-kitob hujjatlari (shartnoma, dalolatnoma, invoices, hisob-faktura va boshqa zarur hujjatlar) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilishi va Buyurtmachiga taqdim etilishi zarur.

Xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asosda foydalanish imkoniyatini ta'minlashi hamda amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiq bo'lishi lozim.

Xizmatlarni faollashtirish, dastlabki sozlash va integratsiya bo'yicha konsultativ ko'mak bilan bog'liq xarajatlar Ijrochi hisobidan amalga oshiriladi.

7. To'lov shartlari

Xizmatlar uchun hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Buyurtmachi va Ijrochi o'rtasida tuziladigan shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Buyurtmachi shartnoma umumiy qiymatining 30 (o'ttiz) foizini shartnoma imzolanganidan so'ng oldindan to'lov (avans) tariqasida amalga oshiradi. Shartnoma qiymatining qolgan 70 (yetmish) foizi xizmatlar ko'rsatilishi davomida har oyda mutanosib ravishda to'lanadi. Bunda har bir oylik to'lov miqdori shartnoma umumiy qiymatining 70 foizidan mazkur oy uchun hisoblangan ulushga muvofiq belgilanadi.

Har oylik to'lov Ijrochi tomonidan tegishli hisobot davri uchun ko'rsatilgan xizmatlarni tasdiqlovchi bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) dalolatnomasi hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirilgan hisob-faktura Buyurtmachiga taqdim etilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblar pul mablag'larini Ijrochining hisob raqamiga bank o'tkazmasi orqali o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

kelishuvchilar: X.Abduraximov, B.Shamsiev, Z.Orifkhojayev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=hM39dE61&id=534686a5-acec-423d-bbb0-28696c49af2f>